Siypantosh qoyatosh rasmlari

O’rta Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan madaniy meros namunalari orasida qoyatoshlardagi rasmlar eng qimmatli manbalar hisoblanib, ular toshga yozilgan tarixiy san’at asarlaridir. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida 1300 dan ziyod qoyatosh suratlarining manzillari aniqlangan va hisobga olingan. Ularning 250 ga yaqini O’zbekistonda joylashgan. Lekin shunday bo’lsada, Markaziy Osiyoda topilgan qoyatosh suratlari ichida Siypantosh yodgorligi eng qadimiyligi hamda o’ziga xos tarzda hayotiy ishlanganligi bilan alohida e’tibor va e’tirofga loyiq bo’lmoqda. Yodgorlik Zarafshon tog’ tizmasi Qoratog’ tog’ bag’rida, Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi Quruqsoy qishlog’i hududida joylashgan. Siypantosh qoyatosh rasmlari dastlab 2001-yilda R.X.Sulaymonov tomonidan aniqlangan.

Yodgorlik O’zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi xodimlari t.f.n. M.Xujanazarov va tadqiqotchi X.Oynazarov tomonidan qayta o’rganildi va Siypantosh atrofidan yangi qoyatosh rasmlari aniqlandi. Yangi topilmalar Siypantoshdan 400-500 m balandlikda, mahalliy aholi Oqbuloq deb nom bergan buloq atroflaridan topildi.

Shuningdek, Siypantoshdan taxminan 2-3 km shimolroqda, Xo’javulmirbaraka qabristonidan 100-150 m g’arbda ham yangi qoyatosh rasmlari aniqlandi.

Bu rasmlar toshda cho’kichlab ishlangan bo’lib, ularda odamlar, hayvonlar, o’q yoylar, turli xil geometrik belgilar aks etgan. Tadqiqotlar natijasida qoyatosh rasmlarda ko’proq tog’ echkilari aks etganligi aniqlandi. Yangi topilmalarning ikkinchi to’plami katta toshning ichida hosil bo’lgan ayvonning shipida qizil oxra bilan chizilgan. Rasmda qo’l panjalari aks etgan.

Bu topilgan qo’l panjalari rasmlari Siypantoshdagi qo’l panjalariga o’xshashligini ko’rishimiz mumkin. Siypantosh atroflaridan topilgan yangi rasmlar Siypantosh qoyatosh rasmlari qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, ular qadimgi aholining mifologik va diniy dunyoqarashi, tasavvurlarini o’rganishda ilmiy manba bo’lib xizmat qiladi. Yodgorlikda tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda.